

Kron kasalligi tavsifi va uni davolash usullari

Xamrayev Zafar Ibragim o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti 4-bosqich talbasi
zafarjonhamrayev6@gmail.com

Anotatsiya: Kron kasalligi – ichakning yallig'lanish kasalliklari (IBD) guruhidagi surunkali va takrorlanuvchi ichak kasalligi. Ovqat hazm qilish traktining istalgan nuqtasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan kron kasalligi ichak devorida yallig'lanish va yaralarni keltirib chiqaradi. Ko'pincha yoshlar orasida uchraydigan bu kasallik hayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi va asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu maqolada Kron kasalligi nima ekanligini, uning belgilari va davolash usullarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Kron, terminal ileit, yarali kolit, diareya, isitma, endoskopiya, biopsiya, steroid, jarrohlik, yara, asorat, davolash,

Kron kasalligi yoki Terminal ileit - yo'g'on ichakdagi nospetsifik yarali granulematoz yallig'lanish kasalligidir. 1932-yil Kron, Ginzburg va Oppeneymer terminal ileit nomi bilan yangi nozologik birlikni amaliyatga tatbiq etdilar. Ularning ta'kidlashicha, bu kasallik ingichka ichakning boshqa turlaridan mutlaqo farq qilgan holda, yonbosh ichakni jarohatlaydi. Lekin keyinchalik shu narsa ma'lum bo'ldiki, kasallik, asosan, yo'g'on ichakda va kam hollarda oshqozon-ichak tizimining boshqa sohalarida uchraydi. 1959-yil Brooke. 1960-yil Lockhart-Mammery va Morton Kron kasalligining yo'g'on ichak turi va yarali kolit butunlay alohida patologiya ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Kron kasalligi erkaklar va ayollarda bir xil miqdorda uchraydi. Lekin oq tanli odamlarda qora tanlilarga nisbatan 5 barobar ko'p uchraydi. Turli millatlar ichida esa yahudiy millati orasida, bilinarli darajada ko'p uchraydi. Kasallik epidemiologiyasini o'rganish shu narsani ko'rsatadiki, oxirgi uch un yillik ichida bemorlar soni tez ortib bormoqda. Kron kasalligining aniq sababi noma'lum bo'lsa-da, immunitet tizimi tananing o'z to'qimalariga noto'g'ri hujumi kasallikning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq, irsiy moyillik va atrof-muhit omillari kasallikning shakllanishiga yordam berishi mumkin, deb hisoblashadi. Ba'zi mumkin bo'lgan sabablar:

- Genetik
- Infektion
- Limfangioektaziya
- Mezenterial limfangiopatiya

- Atrof-muhit omillari

Kron kasalligining belgilari

Qorin og'rig'i: Kron kasalligi bilan og'rigan odamlar qorin bo'shlig'ida surunkali va krampga o'xshash og'riqlarni boshdan kechirishadi.


Diareya: suvli va tez-tez axlat Kron bilan og'rigan bemorlarda tez-tez uchraydigan alomatdir. Shu bilan birga, defekatsiya paytida qon ko'rinishi mumkin.

Vazn yo'qotish: Kron bilan og'rigan bemorlarda vazn yo'qotish keng tarqalgan alomatdir, chunki kasallik ozuqa moddalarining so'rilishiga ta'sir qilishi mumkin.

Isitma: Kasallikning og'irligiga qarab, odamlarda isitma paydo bo'lishi mumkin.

Charchoq va zaiflik: Kron kasalligi energiya darajasiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa charchoq va zaiflik tuyg'usiga olib keladi.

Anal mintaqqa muammolari: Kasallik, shuningdek, anusdagi oqma va yoriqlar kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.



Kron kasallagini tashxislash

1. Jismoniy tekshiruv: Bemorning shikoyatlari va jismoniy belgilari baholanadi.
2. Qon va najas testlari: Qon testlari infeksiya belgilari va yallig'lanish darajasini aniqlash uchun tekshiriladi. Najas tekshiruvi qon, infeksiya yoki ichak faoliyati haqida ma'lumot beradi.
3. Endoskopiya va kolonoskopiya: Ushbu ko'rish usullari bilan ichakning ichki qismlari tekshiriladi va oshqozon yarasi, yallig'lanish yoki shikastlanishlar aniqlanishi mumkin.

4. Biopsiya: endoskopiya yoki kolonoskopiya paytida olingan to'qimalar namunalari tashxisni tasdiqlash uchun laboratoriyalarda tekshiriladi.

Kron kasalligini davolash usullari

- **Dori-darmonlar:** Kron kasalligini nazorat qilish uchun ishlatiladigan dorilar yallig'lanishga qarshi, immunosupressantlar va antibiotiklarni o'z ichiga oladi.
- **Oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash:** Oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash muhim, chunki Kron kasalligi bilan og'rigan odamlarda ozuqa moddalarining so'riliishi ta'sir qiladi. Maxsus ovqatlanish rejaliari dietologlar tomonidan tayyorlanishi mumkin.
- **Steroidlar:** Steroidlar og'ir davrlarda yallig'lanishni tezda kamaytirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo uzoq muddatli foydalanish yon ta'sirga olib kelishi mumkin.
- **Jarrohlik aralashuvi:** dori terapiyasi etarli bo'limganda yoki asoratlар paydo bo'lganda jarrohlik aralashuv talab qilinishi mumkin. Kasallikning zararlangan hududini olib tashlash yoki oqmalarni tuzatish mumkin.
- **Yog' kislotalarini to'ldirish:** Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, omega-3 yog' kislotalari bilan qo'shimchalar Kron kasalligining og'irligini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa

Kron kasalligi surunkali va takrorlanuvchi ichak kasalligi bo'lib, ovqat hazm qilish traktida yallig'lanish va yaralar paydo bo'lishiga olib keladi. Kasallikning belgilari qorin og'rig'i, diareya, vazn yo'qotish va charchoq kabi turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Kasallikning shakllanishida irsiy moyillik va immunitet tizimidagi muammolar muhim rol o'ynaydi. Davolash dori-darmonlar, ovqatlanishni qo'llab-quvvatlash va jarrohlik aralashuvi kabi usullarni o'z ichiga oladi. Erta tashxis qo'yish va samarali davolash bilan Kron kasalligini nazorat qilish, simptomlarni engillashtirish va asoratlarni oldini olish mumkin. Agar kasallik belgilari yoki xavf omillari mavjud bo'lsa, gastroenterologdan yordam so'rash va tegishli davolash kursini aniqlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш. Мирзиёев: Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон. Тошкент 2016 йил. 56 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПК 2909-сон «Олий таълим тадбирлари тўғрисида» ги Қарори.

3. Насонова Е.Л. Ревматология: Клинические рекомендации 2-е изд., испр.и доп. – М.: ГЭОТАР - Медиа М. 2010 - 752 стр.
4. Gadayev A. "Ichki kasalliklar", 2019 Darslik
5. Harrison's Principles of Internal Medicine-19 th Edition – 2015
6. Гадаев А.Г. "Ички касалликлар" Тошкент, 2016 Дарслик.
7. Окороков А.Н. Диагностика и лечение болезней внутренних органов.Москва 2009г.
8. Мазуров А.Н. Диагностика ревматологических заболеваний. Москва 2015 г.